

MAVZU: NAFAS SISTEMASIGA TA`SIR ETADIGAN VOSITALAR

Ozodbekova Moxlaroyim Alisher qizi

Bo'ston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Umimiy farmakologiya va retseptura fani o'qituvchisi


Nafas olishn tizimi

Fiziologik nafas olish jarayoni ikkita yirik qismdan: tashqi nafas olish va ichki nafas olishdan iborat.

Tashqi nafas olish o'pkaga havoni so'rib olish (nafas olish) va havoni tashqariga chiqarish (nafas chiqarish)ni o'z ichiga oladi.

Ichki nafas olish davomida qontomirlar va hujayralar orasida kislorod hamda karbonat anhidrid almashinuviyuz beradi.

Nafas olish jarayonida kislorodga boy havo burun yoki og'izdan boshlanib, **halqum**, **hiqildoq** va **traxeyaga** o'tkaziladi. Traxeya o'pka ichida shoxlanadigan ikkita **bronx**ga bo'linib ketadi. Har bir bronx maydaroq bronxlarga va yanada kichikroq naychalar – **bronxiolalarga** shoxlanadi. Bronxiolalar oxirida **alveolalar** deb nomlangan havo xaltachalari bor. Ularda gaz almashinadi.



Nafas tizimining muhim tuzilmasi – bu **diafragma**. Diafragma qisqarganda u tekislanadi va o‘pkalar kengayib, ularning ichiga havo kiradi. U bo‘shashganida havo sizib chiqadi, o‘pkalar puchayadi.

Shamollash va nafas a‘zolari kasalliklariga davo qilishda bir qancha shifobaxsh o‘simliklardan foydalaniladi. Ularning umumiy soni 50 dan ham ortiq. Ba‘zilar balg‘am ko‘chiruvchi, yo‘talni qoldiruvchi va ko‘krakni yumshatuvchi xossaga ega bo‘lsa, boshqalari bakteriyalarga qarshi, burushtiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli ular og‘iz-tomoqni chayish uchun yoki terlatuvchi shifobaxsh vosita sifatida qo‘llaniladi

Nafas a‘zolariga ta‘sir etadigan dorivor o‘simliklar va ularning preparatlari

Gulxayri. Altey (Althaea). Tibbiyotda gulxayrining 2 turi: dorivor gulxayri – altey lekarstvenniy (Althaea officinalis L.) va arman gulxayrisi – altey armyanskiy (Althaea armeniaca Ten.) dorivor vosita sifatida ishlatiladi.



Dorivor gulxayri – bo‘yi 1, 5 m gacha bo‘ladigan ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Gulxayrining bir qancha turi bo‘lib, ular o‘tloqlarda to‘qayzorlarda, soylarda, botqoqliklarda, begona o‘t sifatida ekinlar orasida, bog‘larda hamda tog‘larning o‘rta qismigacha bo‘lgan yon bag‘irlarida va boshqa nam yerlarda o‘sadi. O‘zbekistonning deyarli hamma viloyatlari to‘qayzorlarida, tog‘li tumanlarining nam yerlarida gulxayri turlarini uchratish mumkin. Tibbiyotda gulxayrining har ikkala turi ildizidan va bargidan bir xilda foydalaniladi. Tarkibida 11% shilliq moddalar, 37% kraxmal va boshqa moddalar bor. Gulxayri qadim zamonlardan beri xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda ishlatilib kelingan dorivor o‘simliklardan. Ibn Sino uning ildizidan, bargidan va urug‘idan tayyorlangan damlama bilan yo‘tal, qon tupurish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolagan hamda balg‘am ko‘chiruvchi va shishlarni

qaytaruvchi vosita sifatida ishlatgan. Hozirgi vaqtda ham gulxayri ildizidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida yo'tal, ko'k yo'tal, o'pka shamollashi, nafas qisishi, tomoq yallig'lanishi, ko'krak og'rishi xastaliklarida yumshatuvchi, og'riq qoldiruvchi sifatida qo'llaniladi. Tibbiyotda gulxayri ildizining dorivor preparatlari (damlama, quruq ekstrakt, sharbat) nafas yo'llari kasalliklarida (ayniqsa bolalarning nafas yo'llari yallig'lanishiga qarshi) va yallig'lanishda balg'am ko'chiruvchi hamda me'da-ichak kasalliklarida (ich ketganda) o'rab oluvchi vosita sifatida ishlatiladi. Gulxayraning mayda kesilgan ildizi nafas yo'llari, ko'krak kasalliklarida qo'llaniladigan balg'am ko'chiruvchi turli yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Dalachoy. Zveroboy (*Hypericum perforatum* L.). Tibbiyotda dalachoyning 3 turidan foydalaniladi. **Teshik dalachoy** (*Hypericum perforatum* L.), **dag'al dalachoy** (*Hypericum scavrum* L.) va **dog'li dalachoy** (*Hypericum maculatum* Grantz.) Teshik dalachoy (*Hypericum perforatum* L.) - bo'yi 100 sm gacha (ko'pincha 30-35 sm) bo'lgan ko'p yillik o't o'simlik.



Dalachoy keng tarqalgan o'simliklardan bo'lib, u yo'l yoqalarida, ariq bo'ylarida, o'tloqlarda, o'rmonlarda, o'rmon chetlarida, bo'talar orasida, bedazorlarda, bog'larda, sug'oriladigan va boshqa nam yerlarda, tog'larning etaklaridan to o'rta qismigacha bo'lgan mayda tosh-tuproqli joylarda o'sadi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida uchraydi. Tarkibida oshlovchi moddalar, antrasten unumlari, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Ibn Sino dalachoyini og'riq qoldiruvchi, siydik haydovchi vosita sifatida va turli yaralarni davolash uchun ishlatgan. Xalq tabobatida dalachoy yer ustki qismidan tayyorlangan damlama asosan

me'da-ichak kasalliklari (ich ketish)ni davolash va qon oqishni to'xtatish uchun qo'llaniladi. Ilmiy tibbiyotda dalachoy yer ustki qismining dorivor preparatlari (damlama, suyuq ekstrakt) og'iz bo'shlig'ining yallig'lanish kasalliklarida (gingivit, stomatit) va tomoq yallig'lanishida og'iz va tomoqni chayish hamda me'da-ichak kasalliklarida (kolit, ichburug') ichish uchun ishlatiladi. Kuygan joyni va yaralarni davolash uchun dalachoy yer ustki qismidan tayyorlangan novoimanin preparati qo'llaniladi. Bu preparat eritmasi og'iz va tomoqni chayish uchun xam ishlatiladi. Dalachoy yer ustki qismi og'iz va tomoqni chayish, me'da-ichak va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatiladigan turli yig'ma-choylar tarkibiga kiradi. Xalq tabobatida yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarga davo qilish uchun dalachoyning yana ikki turi: dag'al dalachoy va cho'ziqbarg dalachoy yer ustki qismlaridan tayyorlangan damlamalar ham ishlatiladi.

Andiz. Devyasil (*Inula L.*). Tibbiyot va xalq tabobatida andizning bir necha turidan foydalaniladi. Bulardan qora andiz devyasil visokiy (*Inula helenium L.*), sariq andiz- devyasil krupniy (*Inula grandis Schrenk.*), Britaniya andizi (chachalbosh) - devyasil britanskiy (*Inula britannica L.*)va boshqalarni aytib o'tish mumkin.



Qora andiz bo'yi 150 sm achabo'lgan ko'p yillik o't o'simlikdir. U tog'li yerlarda, tog' etaklarida, tekisliklarda, cho'l va o'rmon - cho'l xududlaridagi o'tloqlarda, butalar orasida, tepaliklarning pastki qismida, suv bo'ylarida va boshqa nam yerlarda o'sadi. O'zbekistonda Toshkent, Samarqand, Jizzax, Andijon, Namangan, Farg'ona, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining tog'li tumanlarida, tog' etaklaridan tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan nam yerlarda, to'qayzorlarda, daryolar, vodiylarda va chakalakzorlarda o'sadi. Tibbiyotda andiz turlarini ildizpoya va ildizdan foydalaniladi. Andiz antiseptik, yallig'lanishga qarshi

va organizmdan gijjalarni haydash xossasiga ega. Andiz qadimdan tabobatda ishlatilib kelingan dorivor vosita bo'lib, Ibn Sino uni o'z vaqtida turli kasalliklarda, jumladan ko'krakni tozalovchi va balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llagan. Xalq tabobatida hozir ham ildizpoya va ildizidan tayyorlangan qaynatma o'pka sili va nafas yo'llarining shamollash kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi, isitmada haroratni pasaytiruvchi hamda siydik va gijja haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Yaralar, jarohatlar, ekzema, qo'tir va terining boshqa kasalliklariga davo qilishda ularning ildizpoya va ildizidan tayyorlangan qaynatma shimdirilgan doka yaraga qo'yiladi. Sariq andiz farmastevtika institutining farmakognoziya kafedrasida prof. A.Yo.Yoqubov tomonidan o'rganilgan va amaliyotda tatbiq etilgan. Tibbiyotda andiz ildizpoyasi va ildiz qaynatmasi (10g-200 ml) nafas yo'llarining yallig'lanishi kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi dori sifatida xamda me'da- ichak kasalliklariga davo qilish uchun qo'llaniladi. Qaynatma yo'talni qoldirish va balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida kuniga 3-4 maxal ovqatdan 20 daqiqa oldin 1 osh qoshiqdan iste'mol qilinadi.

Afsanak. Termopsis (Thermopsis R.Br.). Afsanakning bir necha turlari ishlatiladi: nashtarsimon afsanak (Thermopsis lanceolate R.Br.). Ketma – ket gulli afsanak (Thermopsis.alterniflora Rgl. et Schmalh), Turkiston afsanagi (Thermopsis turkestanica Gand.).



Nashtarsimon afsanak ko'p yillik, bo'yi 10-14 sm keladigan o'to'simlik. Turkiston afsanagi bo'yi balanligi, sershoxligi bilan ajralib turadi. Nashtarsimon afsanak qozog'istonda, Ukrainada, Rossiyaning Evropa qismida va O'rta Osiyoda uchraydi. Turkiston afsanagi, ketma – ket gulli afsanak G'arbiy Tyanshan tog'larida,



Toshkent viloyatining tog'li tumanlarida o'sadi va mahsulot tayyorlanadi. Afsanakning urug'I tarkibida 2 - 3% alkaloid (sitizin) va boshqa moddalar bor.

O'simlikning yer ustki qismida 0,5 - 3,6% alkaloidlar (termopsin, paxikarpin va b.) mavjud. Ushbu alkaloidlarning farmakologik xossasi balg'am ko'chiruvchi ta'sirdir, sitizin alkaloidi esa nafas markazini qo'zg'atuvchi ta'sirga ega. O'simlikdan tayyorlangan galen preparatlari (damlama va qaynatmalar) nafas markazini qo'zg'atadi, qusish markazini jonlantiradi. Termopsis yaxshigina balg'am ko'chiradi. Chunki Bronx shilliq pardasidagi bezlarning ishini kuchaytirib balg'amni suyultiradi, kipriksimon epiteliy xarakterini tezlashtiradi va balg'am ajralib chiqishini yengilashtiradi. Shu sababli o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan fitopreparatlar surunkali bronxidlarda keng miqyosda ishlatiladi.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. M.N.Maxsumov, M.M.Malikov "Farmakologiya". Toshkent., 2006y.
2. M.N.Maxsumov, X.X.Xolmatov "Fitoterapiya farmakologiya asoslari bilan birga". Toshkent., 2003y.
3. B.A.Samura, L.T.Malaya "Fitoterapiya v klinike vnutrennix bolezney". Xarkov. 2003.
4. M.D.Mashkovskiy "Lekarstvennyye sredstva" (1-2 tom). Moskva. 2004y.

Internet saytlari:

<http://www.>

[ziyonet.uz/http://www.](http://www.ziyonet.uz/)

[lex.uz/ httpwww.google.com/](http://www.lex.uz/)